

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XUSUSIY (INDIVIDUAL) KOMPONENTLARNI SHAKLLANTIRISH: NAZARIY ASOSLAR VA DIDAKTIK MODEL

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.048>

Turobova Xadicha Xasan qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlag'ich ta'lim) mutaxsissiligi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida xususiy (individual) komponentlari (o'quv motivatsiyasini, o'zini boshqarishni o'rganish, kognitiv rivojlanish darajasini, ijtimoiy-taqlidiy o'rganishni, shaxsiy qiymat-munosabatlari hamda o'quv uslublari) ni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari yoritildi. Pedagogik olimlar yondashuvlari hamda formatif baholash ta'sir kuchi, o'qitish strategik g'oyalari integratsiya qilinib, boshlang'ich ta'limning kompetensiyaviy talablari bilan boyitilgan didaktik model taklif etildi.

Kalit so'zlar: individual komponentlar, motivatsiya, o'zini boshqarib o'rganish, differensial ta'lim, formatif baholash, kompetensiya, boshlang'ich ta'lim.

ФОРМИРОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ КОМПОНЕНТОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ОСНОВА И ДИДАКТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ

Аннотация: В данной статье рассматриваются психолого-педагогические основы формирования индивидуальных компонентов (учебная мотивация, самоорганизация, познавательное развитие, социально-имитативное обучение, личностные ценности и установки, стили обучения) у учащихся начальной школы. Предложена дидактическая модель, обогащенная компетентностными требованиями начального образования, интегрирующая подходы педагогических ученых и силу формирующего оценивания, стратегические идеи обучения.

Ключевые слова: индивидуальные компоненты, мотивация, саморегулируемое обучение, дифференцированное обучение, формирующее оценивание, компетентность, начальное образование.

KIRISH So'nggi yillarda ta'lim siyosati va amaliyotida "kompetensiya" tushunchasi markaziy o'ringa chiqmoqdi: o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki, o'z-o'zini boshqarishni o'rganadi, hamkorlik qila oladi, vaziyatga moslasha oladi va shaxsiy o'sishni rejalashtira oladi. Shu nuqtai nazardan, "xususiy (individual) komponentlar"ni shakllantirish

boshlang'ich ta'limning strategik vazifasiga aylanadi. O'quvchilar o'z ta'limi uchun o'zi mas'uliyatni his etishi va yangi qiymat yaratishi, ziddiyatlarni muvozanatlashishi, mas'uliyat bilan harakatlanishi kabi yo'nalishlarni alohida ta'kidlash mumkin.

Boshlang'ich yosh davrida individual rivojlanish notekis kechadigan darvr hisoblanadi: ayrim o'quvchilarda til va tafakkur tezroq rivojlansa, boshqalarida ijtimoiy moslashuv yoki o'zini boshqarish komponentlari pastroq bo'lishi mumkin. Piaget ta'riflagani kabi, preoperatsional davrdan konkret operatsiyalar bosqichiga o'tish (taxm. 7–8 yosh atrofida) aynan shu individual tafovutlar bilan birga kuzatiladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi “hamma uchun bir xil” metod emas, balki diagnostika + differensial yondashuv + formatif baholash asosida ishlashi zarur.

Maqolaning maqsadi esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida individual komponentlarni shakllantirish hamda nazariy asoslarini tizimlashtirish bo'lib, kompetensiyaviy talablarga mos didaktik model taklif etishdir.

Maqolaning vazifalari “individual komponent” tushunchasini operatsion ta'riflash; nazariy manbalar asosida komponentlar tuzilmasini asoslash; dars jarayoniga tatbiq etiladigan model va indikatorlarni ishlab chiqish; baholash (formatif) va o'qitish strategiyalarini tavsiya etishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Xususiy komponent”. Xususiy (individual) komponentlar deganda, o'quvchining o'qish jarayonida natijaga ta'sir qiladigan, nisbatan barqaror, ammo pedagogik ta'sir orqali rivojlantirish imkoni bo'ladigan, shaxsiy-psixologik va o'quv-faoliyatga oid ko'rsatkichlar majmui tushuniladi. Bu majmuaga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Motivatsion komponent (ichki motiv, maqsad, qiziqish);
2. O'zini boshqarib o'rganish (SRL) komponenti (reja, nazorat, refleksiya);
3. Kognitiv-rivojlanish komponenti (mantiqiy amallar, tushuncha, til–tafakkur bog'liqligi);
4. Ijtimoiy-o'rganish komponenti (kuzatish, taqlid, modeldan o'rganish);
5. Qadriyat–axloqiy komponent (xulq me'yorlari, mas'uliyat);
6. Metakognitiv va “mindset” komponenti (xatoga munosabat, o'sishga ishonch).

Bu tuzilma “faoliyat-ong-shaxs” yondashuvi bilan mos: shaxs sifatlari aynan faoliyatlarda shakllanadi va ong orqali boshqariladi.

NATIJALAR

Til–tafakkur birligi va pedagogik “skafold” Vygotskiy tafakkur va nutq munosabatini rivojlanish jarayoni sifatida ko'rib, “so'z ma'nosi”ni tafakkur va nutq birligining markaziy birligi deb talqin qiladi; bu birlik rivojlanishi ta'lim orqali jadallashadi.[1]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida individual komponentlarni shakllantirish uchun topshiriqlarning ko'p va “o'quvchining hozirgi imkoniyati”dan biroz yuqoriroq bo'lishi, ammo doimo o'qituvchi nazorati hamda ko'magida bajarilishi kerak. Faoliyat nazariyasi va ong-faoliyat birligi

sifatida faoliyatlarda “motiv-maqсад-harakat-amal” zanjiri orqali o'songina tushuntiriladi: o'quvchi nima uchun o'qiyapti (motiv) va nimaga erishadi (maqсад) aniq bo'lsa, individual komponentlar tezroq shakllanadi deb ta'kidlaydi Leontev. Rubinshteyn esa psixikaning faoliyatda namoyon bo'lishini ta'kidlab, o'rganishni passiv qabul emas, faol qayta ishlash sifatida ko'radi. Darsdagi motivatsiya “tashqi rag'bat” bilangina emas, mazmunli faoliyat va natijani his qilish orqali mustahkamlanadi.[2,3].

Ijtimoiy o'rganish: kuzatish va modelda Bandura inson o'rganishida “vicarious (vositali) o'rganish” boshqalarni kuzatib, oqibatlarni ko'rib xulosalar orqali o'rganish mexanizmini kuchli omil deb ko'rsatadi. Sinfdagi (o'qituvchi modeli, tengdosh modeli, “eng yaxshi ish” namunalari) individual komponentlar (intizom, nutq, muammo yechish uslubi)ni shakllantiradi.[4].

Kichik yoshdagi o'quvchilarga “sen aqllisan” kabi shaxsga yopishtirilgan bahodan ko'ra, “strategiya tanlading”, “mehnat qilding”, “xatodan xulosa chiqarding” kabi jarayon bahosi individual o'sish komponentini yanayam kuchaytiradi.

O'zini boshqarib o'rganish dars jarayonida o'quvchi maqsad qo'yadi, strategiya tanlaydi, jarayonni kuzatadi, natijalarni esa tahlil qiladi bu esa, individual komponentlarning “yadro mexanizmi”hisoblanadi.[5]. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi “oddiy chek-list”, “men bugun nimani o'rgandim?”, “qayerda qiynaldim?” kabi refleksiv mikro-vositalar orqali bosqichma-bosqich shakllantirishga yordam beradi.

O'qituvchi kompetensiyasi: Shulman “pedagogik mazmun bilimi”ni fanni bolaga tushunarli qilib “o'qitish bilimi” sifatida ko'rsatadi. Tomlinson esa differensial ta'limni o'quvchi tayyorgarligi, qiziqishi va o'rganish profiliga mos moslashtirish deb talqin qiladi.Kichik yoshdagi bolalarning individual komponentlari “o'quvchining farqini tan olgan” ta'lim dizayni bilan real shakllanadi.[6,7]

Baholash: formatif yondashuv va ta'sir kuchi

Black Wiliam formatif baholashni darsdagi muntazam tekshiruv, qayta aloqa va o'quvchini keyingi qadamga olib boradigan tuzatishlar tizimi sifatida asoslaydi. Hattie esa “ko'rinadigan o'qitish va ko'rinadigan o'rganish” g'oyasini kuchli dalillar bilan birlashtiradi: aniq maqsad, aniq mezon, sifatli feedback o'quv yutuqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. [8,9,10].

O'qitish strategiyalari va mazmunni bosqichlash jarayonida Marzano va hammualliflar o'qitishda samarali strategiyalarni (o'xshash-farqni topish, umumlashtirish, feedback, hamkorlik, maqsad qo'yish va h.k.) kategoriyalar ko'rinishida beradi. Bruner esa “har qanday fan ma'lum intellektual halollikda har qanday yoshda o'rgatilishi mumkin” degan tezis orqali mazmunni spiralsimon (bosqichma-bosqich murakkablashib) berish g'oyasini kuchaytiradi.

Bloom taksonomiyasi esa kognitiv maqsadlarni soddadan murakkabga yo'naltirib, individual rivojlanish darajasiga mos maqsad qo'yishga xizmat qiladi.[7].

Taklif etilayotgan didaktik model sifatida (Komponentlar + Differensial Instruksiya + Formatif baholash) taqdim etildi. Maqolada integrativ model quyidagi bloklardan iborat bo'lib, diagnostika bloki (haftalik va oylik): kognitiv tayyorgarlik; motivatsiya profile; indikatorlar (reja–nazorat–refleksiya); ijtimoiy o'rganish (hamkorlik).

Ta'lim dizayni bloki (differensial instruksiya): kontent (matn soddaligi, tayanch so'zlar); jarayon (juftlik, mustaqil ish); mahsulot (rasm, matn, og'zaki izoh,); muhit (xavfsiz xato qilish iqlimi).

Formatif baholash bloki: “tezkor signal” (mini-test, kartochka, “1 daqiqa xulosa”); rubrika + aniq mezon; “keyingi qadam” feedback (nimani yaxshilash, qanday strategiya tuzishni rejalashtirish).

Tarbiyaviy-axloqiy integratsiya: sinf qoidalari, mas'uliyat, odob-axloq milliy tarbiya kontekstida.

XULOSA Boshlang'ich sinf o'quvchisining individual komponentlarini motivatsiyasini, o'zini boshqarishini, kognitiv tayyorgarliklarini, ijtimoiy o'rganishni, qadriyat-munosabatlari hamda o'sish ko'rsatgichlarini bir-biriga bog'langan tizimini rivojlantirishdan iborat.. Ularni shakllantirish uchun faoliyatga asoslangan ta'lim, til-tafakkur rivoji va pedagogik ko'mak, ijtimoiy model, ehtiyojlarni qo'llab-quvvatlovchi motivatsion muhit, o'z-o'zini boshqarib o'rganish mexanizmlari, differensial instruksiya hamda formatif baholash sifatli integratsiyalar zarur. Taklif etilgan model ushbu integratsiyani dars amaliyotiga mos ravishda olib borishga, o'lchanadigan indikatorlar orqali amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. *Thinking and Speech* (1934), (tafakkur–so'z munosabati va funksiyalar bog'liqligi).
2. Leontev A.N. *Activity, Consciousness, Personality*, (faoliyat va psixologik funksiyalar izohi).
3. Rubinshteyn S.L. *Основы общей психологии*, (psixika–faoliyat birligi konsepsiyasi).
4. Bandura A. *Social Learning Theory* (1977), (vositali/kuzatish orqali o'rganish).
5. Zimmerman B. SRL bo'yicha material, (ta'rif va jarayon),
6. Shulman L. PCK haqidagi klassik maqola bo'limi (PCK ta'rifi),
7. Bloom B. va boshq. *Taxonomy... Cognitive Domain* (1956), (kognitiv maqsadlar bosqichlari).
8. Bruner J. *The Process of Education* (1960) tezisi keltirilgan ERIC hujjati, (p.33 iqtibos).
9. Black P., Wiliam D. *Inside the Black Box*, (formatif baholashning ahamiyati).
10. Hattie J. *Visible Learning*, (ko'lamli meta-tahlil va “visible learning” g'oyasi).